

**O. Hasanboyeva, M. Inoyatova**

# **ODOBNOMA**

Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining  
1-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan  
sakkizinchи nashri

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan  
tasdiqlangan

**«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»**  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent — 2018

UO'T: 17=512.133(075.2)

KBT 74.200.51ya71

O-31

Taqrizchilar: **N. Komilov**

— filologiya fanlari doktori, professor;

**Z. Zamonov** — O'zDJTU doktoranti;

**Q. Xotamova** — Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi  
30-maktab o'qituvchisi.

## SHARTLI BELGILAR:



— o'qituvchi o'qib beradi;



— dono bobo o'gitlari;



— toping;



— maqollarni yod oling;



— savol va topshiriqlar;



— savollar;



— topshiriqlar;



— dars tugadi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-07-599-3

© O. Hasanboyeva, M. Inoyatova. 2011, 2018.

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2018.

# I. O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD DIYOR

## 1. MUSTAQILLIK KUNI



O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni Mustaqillikka erishdi va O'zbekiston Respublikasi deb e'lon qilindi. Mustaqillik bayrami eng quvonchli bayram hisoblanadi.





## Hur o'lkam

O'zbekiston — hur o'lkam,  
Bag'ri to'la nur o'lkam.  
Humo qushi boshingda,  
Baxt porlar quyoshingda.

Mehrga kon, to'liqsan,  
Otamizday ulug'san.  
Sen quvonch-u faxrimiz,  
Bag'ringda shod, baxtlimiz!

*Dilshod Rajab*

## Vatan

Bizning vatanimiz — O'zbekiston.  
Vatan — bizni o'rab turgan tevarak-olam.  
O'zbekiston go'zal va serquyosh diyor. Davlatimiz ramzlarida ham yurtimizning boy tabiatи aks etgan.



O'zbekistonni nima uchun serquyosh o'lka deb ataymiz?



?!  
?

1. Vatanimiz Davlat madhiyasini yod oldingizmi?
2. Vatanimiz Davlat gerbida nimalar aks etgan?
3. O'zbekistonni nima uchun ozod o'lka deb ataymiz?
4. Uyda kattalar yordamida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i rasmini chizib, bo'yab keling.



## 2. BOBOLARDAN MEROS YURT



### Obod o‘lka

O‘zbekiston kundan kunga go‘zallashib bormoqda. Vatanimizda yangi, chiroyli binolar, ko‘priklar qurildi. Ravon, tekis yo‘llar yotqizildi. Biz vatanimiz bilan faxrlanamiz.

?!  
?

1. Ozod va mustaqil yurtimizda qanday yangi binolar qurildi?
2. Mahallangizdagi obodonlash-tirish ishlari haqida so‘zlab bering.



Vatanga mehr onaning allasi-dan boshlanadi.



?!  
?

1. Biz yashayotgan yurt qanday ataladi?
2. Biz nima uchun vatanimizni sevamiz?
3. Yuqoridagi rasmlar asosida vatanimiz haqida so‘zlab bering.



### **3. ODOB-AXLOQ ME'YORLARINING DASTLABKI TALABLARI**



#### **Yaxshi so‘z**

Gapirganda «sizlab» gapir,  
«Sen», «san»lama.

Hammani ham sen o‘zingga  
Teng sanama.

«Katta», «kichik» degan axir  
So‘zimiz bor.

Qarshimizda kim turibdi,  
Ko‘zimiz bor.

Hurmat degan gap bor elda,  
Yodingda tut.

Pala-partish so‘z aytishni,  
Darhol unut.

*Tolib Yo‘Idosh*

O‘ziga boqma – so‘ziga boq.

*Alisher Navoiy*

!

She’rni tinglab, axloq-odob me’-  
yorlarining dastlabki talablari  
nima ekanini aytib bering.



1. Rasmlarda tasvirlangan bolalarni nima uchun mehribon, a'lochi, ozoda, ahil va odobli bolalar deymiz?
2. Buvijoningizdan odobli bola qanday bo'lishini bilib oling.



Yaxshilardan i    t ol.



Yomon baxil bo'lar,  
Yaxshi – ahil.



## **II. ODOB – INSON UCHUN OFTOB**

### **4. ETIKETNING ASOSIY QOIDALARI**



#### **Ertak**



Qadim zamonda bir o’rmonda hayvonlar tinmay bir-birlari bilan urishar ekan. Shu o’rmonda bir sher ham yashar, uni “Paxmoq axmoq” deb atashar ekan. Bir kuni o’rmonga sehrgar laylak uchib kelibdi. U do’kon ochib, nomini “ETIKET” qo’yibdi. Unda sotilayotgan qizil sandiqchalarga “Chiroyli tabassumlar”, zar sandiqchalarga “Yoqimli so‘zlar”, oq sandiqchalarga “Go’zal xulq-atvor” deb yozib qo’yilgan ekan. Paxmoqvoy barcha sandiqchalardan sotib olibdi. Sehrli sandiqchalar uni odobli, oliyjanob qilib qo’yibdi. Tez orada

o'rmon hayvonlari uni "Oliyjanob sher" deb atay boshlashibdi. Oliyjanob sherni o'rmonning podshohi qilib saylashibdi. Shunday qilib, hayvonlar ahil yashay boshlashibdi.



Rasmlarga qarab, etiketning asosiy qoidalalarini aytib bering.



## 5. ETIKET NIMAGA O'RGATADI?



Rasmlarga qarab, etiketga amal qilayotgan bolalarni topping.



Bol ham tildan, balo ham tildan.

Odob – kishining zeb-ziynati.



## Etiketdan o‘rganamiz

Avtobusda kattalarga joy bersa,  
Buvisiga qo‘l ko‘ksida, choy bersa,  
“5” o‘rniga “2” baho olmasa,  
Sinfida shovqin-suron solmasa,  
Xulq-odobi yuz-ko‘zidan bilinsa,  
Etiketning o‘rgatgani shu bo‘lar,  
Unga amal qila olgan zo‘r bo‘lar!


*M. Egamberdi qizi*



Rasmga qarab, toping-chi,  
odobli bola nimalar bilan  
do‘stlashishi kerak ekan?



## 6. ETIKETNING ASOSIY TALABI



Odamlarga mehribon bo'ling.



## 7. YAXSHILIK VA YOMONLIK



### Yomonlik qaydan kelar?

Yomonlikning asosi  
Eng avval bekorchilik.  
Bekorchining qilmishi  
Turgan gap, beorchilik.  
Bekorni ko'rgan zamon,  
Tortinma, olgin qo'lga.  
Boshla mehnat deyilgan  
Ajoyib oydin yo'lga.  
U mehnat mакtabida  
Yaxshilikka yo'l olar.  
Bekorchilar – yomonlar  
Shu yo'sinda yo'qolar.

*Po'lat Mo'min*



Yaxshidan bog' qolar,  
Yomondan – d    .

??!

1. Yomonlik qayerdan paydo bo'lar ekan?
2. Yomon xususiyatlar nimalar-dan iboratligini aniqlab keling.



!

Rasmga qarab, fikr bildiring.





## 8. MAS'ULIYAT Jo'ja bilan Quyon

Jo'ja Quyonga: "Men mas'uliyatliman", – deb maqtandi. Quyon undan sabzisiga qarab turishini iltimos qildi. Jo'ja sakrab o'ynab yurib, sabzini yo'qotib qo'ydi. Quyon qaytgach, Jo'jadan xafa bo'ldi. Jo'jaga: "Senga ishonib, xato qilibman, mas'uliyatsiz ekansan", – dedi.



Mas'uliyatsizga ishonma.



1. Nima uchun Quyon Jo'jani "mas'uliyatsiz" deb atadi?
2. Siz o'quvchilik mas'uliyatini qanday tushunasiz?



## **9. RAHMDILLIK VA BAG'RIKENGLIK**



!

Rasmga qarab, xulosa chiqaring.



### **Rahmdil bola**

Rahimjon futbol o‘ynash uchun ketayotgan edi, ko‘chada adashib qolgan bolakayni ko‘rib qoldi. Yig‘lab turgan bolaga juda rahmi keldi. Borib, bola-

ning ko‘z yoshlarini artdi, qo‘lidan tutib, o‘z uyiga olib kirdi.

Unga koptok sovg‘a qildi. So‘ng onasi bilan birga bolani uyiga eltib qo‘yishdi.



Mehr — gul, qahr — t  n .



Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos eng go‘zal fazilat. Shuning uchun yurtimizda turli millat vakillari ahil va inoq yashaydilar.



Mehr xazinasi — bag‘rikenglik.



## TAKRORLASH

?!  
?

1. O‘zbekiston qachon mustaqillikka erishdi?
2. Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari haqidada so‘zlab bering.
3. Etiketning asosiy qoidalarini sanab bering.
4. Rahmdillik, bag‘rikenglik va mas’uliyat tuyg‘usi nima ekanini tushuntirib bering.
5. Maqollarni to‘ldiring:

Uyat yuzda bo‘lar,  
Mehr — 

k			a
---	--	--	---

.

Ilon zahri — tishida,  
Yomon zahri — 

t				a
---	--	--	--	---

.

Yaxshi bilan yursang,  
Yetarsan murodga.  
Yomon bilan yursang,  
Qolarsan 

u				a
---	--	--	--	---

.

### III. INSON VA JAMIYAT

## 10. SALOMLASHISH QOIDALARI



Qo‘ni-qo‘shti, sinfdoshlar va maktabingiz siz uchun jamiyat hisoblanadi. Jamiyatda salomlashishning ahamiyati katta.

Salomlashishning muhim qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Kichik kattaga, yolg‘iz odam ko‘pchilikka salom beradi.
2. Ochiq chehra bilan, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salomlashish kerak.
3. Salomlashish vaqtida “Assalomu alaykum”, “Ko‘rganimdan xursandman”, “Sog‘ bo‘ling”, “Kuningiz xayrli bo‘lsin” kabi sehrli so‘zlarni ishlatish kerak.



Oldin salom, keyin kalom.




??

1. Rasmlardagi holatlarni izohlab bering.
2. Ayting-chi, qanday holatlarda salom berilmaydi?



## 11. SALOMLASHISH ODOBI

### Odobning boshi — salom



Yo'l ustida uchragan  
Kishiga bersang salom.  
Alik olib avvali, so'ngra  
Der: "Rahmat, bolam".

Salomsiz o'tsang agar,  
Sho'rlik soqov ekan der.  
Tiling bo'lgach, albatta,  
Kattalarga salom ber.

*Tolib Yo'Idosh*



Qanday bolalar salomlashishni  
unutadilar?

Salom bering, bir-biringizga  
mehringiz ortadi.

*Hadis*

**Hadis** — muqaddas o'git,  
nasihat.



## 12. OVQATLANISH QOIDALARI VA MADANIYATI



?!  
?

1. Ovqatlanishning qaysi qoidalarini bilasiz?
2. Rasmlardan ovqatlanish qoidalariga rioya qilinmagan holatlarni toping.



## Buvijon o'gitlari

Kechki taom payti edi. Husan taomni juda shoshilib yedi. Buni ko'rgan buvisi unga tanbeh berdi:

— Ovqatlanish madaniyatining o'z qoidalari bor. Men uchtasini aytib beraman. Odobli bola ovqatlanishdan awal va keyin qo'llarini yuvadi — bu birinchisi. Ikkinchisi — o'zidan kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi. Uchinchisi — taom yeganida, qo'li bilan yerga tayanmaydi. Qolganlarini sen o'zing aytib ber-chi?!



1. Buvi ovqatlanishning qaysi qoidalalarini aytdi?
2. Ovqatlanishning yana qanday qoidalalarini bilasiz?



## 13. ODOBLY BOLA ELGA MANZUR



Rasmlardagi qaysi bolalarni odobli deb bilasiz?



Bola – aziz, odobi undan aziz.

Odob – kishining zeb-u ziynati.



## **14. MINNATDORLIK VA JONKUYARLIK**



### **Jonkuyar bola**

Uch ona va bir qariya bozordan birga qaytishdi. Ayollarning qo'llilarida yuklari bor edi. Ikki ona yo'l bo'yи o'z farzandini maqtab keldi. Birinchi ona farzandini chaqqon akrobat ekanini, ikkinchi ona o'g'lining bulbulday xushovoz ekanini aytdi. Uchinchi ona hech narsa demadi. Uyga yaqinlashganlarda farzandlari ularning qarshisidan chiqishdi. Birinchi onaning o'g'li oyog'ini osmonga ko'tarib, usta akrobatlardek qo'llari bilan yurib keldi. Ikkinchi ona-

ning o'g'li bulbulday go'zal ovozi bilan qo'shiq kuyladi. Uchinchi onaning o'g'li esa salom berib, onalarning yu-kini qo'llaridan oldi. Uchinchi ona o'g'liga rahmat aytib, yelkasiga qoqib qo'ydi. Buni ko'rgan qariya: – Men jonkuyar va maqtovga loyiq birgina bolani ko'rdim, – dedi.

Ayting-chi, qariya qaysi bolani jonkuyar deb bildi?



Xayrlı ishning xayrixohi ko'p.



1. Uchinchi o'g'ilning jonkuyarligini qayerdan bildingiz?
2. Biz qachon, kimga rahmat aytamiz?



# 15. UYDA VA TA'LIM MUASSASASIDA ODOB-AXLOQ QOIDALARI



## Uyda:

1. Ota-onangizga mehr va hurmat bilan munosabatda bo'ling.
2. Ota-onangizga beminnat dastyor bo'ling.



?

Siz uyda qanday ishlarni bajarasiz?

## **Maktabda:**

1. Maktabga kechikib kelmang.
2. Berilgan topshiriqlarni diqqat bilan tinglang va o‘z vaqtida bajaring.
3. Savol berishdan avval qo‘lingizni ko‘taring. Boshqalarga xalal bermang.



!

Dars va tanaffus vaqtida rioya qilinadigan odob qoidalarini ay-tib bering.



Ustoz otangdek ulug‘.



## **16. JAMOAT JOYLARIDA O‘ZINI TUTISH**



Odobli bola jamoat joylarida o‘zini yaxshi tutadi. Injiqlik qilmaydi, odamlarga yo‘l beradi, kattalarga o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom beradi. Orasta kiyinib, chiroyli bo‘lib yuradi. Shovqin solmaydi.



### **Ko‘chada**

Dilnoza ko‘chada buvisi bilan ketylotgan edi, bir bolaning xarxashasi xayolini bo‘ldi:

– Olib berasiz, mana shu saqichni, olib berasiz! – derdi bola.

Onasi bo‘lsa unga nimalarnidir uqtirmoqchi bo‘lardi. Lekin bola yer tepinib:

– Unda “Snikers” olib bering! – derdi.

Oyisi uyatdan nima qilarini bilmay atrofga alanglardi.

- Buvijon, – dedi Dilnoza, – anavi bola oyisini xafa qilyapti-a?
- Ha, bolajonim, bechora onasining puli yo‘qdir-da, – dedi buvisi norozi bo‘lib, boshini sarak-sarak qilarkan.
- Men hech ham bunaqa qilmayman, kattalarni uyaltirmayman-a, buvijon?
- Buvung aylansin sendan, o‘zimning aqli qizimsan-da!

*Internetdan*



Odobni bedobdan o‘rgan.

Odob boshdan, nihol yoshdan.



Bo‘g‘inlardan so‘z hosil qilib, jamoat joylarida o‘zini qanday tutish kerakligini bilib oling.



## **17. XAVFLI VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKAT QILING**

### **Maqtov**

Aziza birinchi sinfda o‘qiydi. O‘qituvchi darsda Aziza va sinfdoshlariga məktəb binosini tark etish kerakligini aytdi.

Aziza o‘rnidan turib, xuddi o‘qituvchisi Muqaddas opa o‘rgatganidek, partadoshi Ahmad bilan eshik oldiga borib turdi. Sinfdoshlar shovqin-suronsiz, tartib bilan o‘ng tomondan yurib, məktəb hovlisiga chiqa boshladilar.

Ammo 3-“A” sinf o‘quvchilari shunaqangi chopib chiqdilarki, Gulnoza ismli qiz yiqilib ham tushdi. O‘rtoqlari unga yordam bermay, turtib o‘tib ketishdi.

Ular bir-birlarini turtib, shovqin bilan sport maydoniga chiqib kela boshlashdi. Buni ko‘rgan məktəb rahbari: “Ukalarингизга qaranglar, qo-

dalarga rioya qilgan holda, tezlik bilan binoni tark etdilar”, – dedi. Maktab direktori shu kuni Azizaning sinfini maqtadi.

*Nargiza Ismatova*



?!  
?

1. Maktab rahbari Azizaning sinfini nima uchun maqtadi?
2. 3-“A” sinf o‘quvchilari harakatiga baho bering.
3. Bunday vaziyatda siz qanday harakat qilasiz?
4. Xavfli vaziyatlarda bir-birin-gizga qanday yordam berasiz?
5. Xavfli vaziyat yuz berganida qaysi yo‘laklardan harakatlanish mumkinligini ko‘rsa-tuvchi xarita chizing.



## TAKRORLASH

?!  
?

1. Jamoat joylarida qanday odob qoidalariga rioya qilish lozim?
2. Uyda va maktabda rioya qilinadigan odob qoidalarini aytilib bering.
3. Ovqatlanishda nimalarga rioya qilish kerak?
4. Salomlashishda nimalarga amal qilish zarur?
5. Berilgan maqollarni to‘ldiring va izohlang: “Avval salom – ...”, “Yaxshi bo‘lsang o‘zarsan, ...”, “Bola aziz, odobi ...”, “Qobil farzand, jonga ...”, “Yaxshi otga bir qamchi, ...”.
6. Yaxshilik haqida qanday she’r va ertaklarni bilsiz?



## **IV. INSON SALOMATLIGI – YURT BOYLIGI**

### **18. SHAXSIY GIGIYENA QOIDALARI**

#### **Shaxsiy gigiyena nima?**

Shaxsiy gigiyena – ozodalikka rioya qilish deganidir. Shaxsiy gigiyena qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Tishlarni ertalab va kechqurun yuvish.
2. Yuz-qo'llarni hamisha toza tutish.
3. Ovqatlanish oldidan qo'l yuvish.
4. Uyquga yotishdan avval cho'milish, tirnoqlarni vaqtida olish.
5. O'rinnko'rpa, idish-tovoq va ro'zg'or asboblarini ozoda tutish.
6. Dastro'mol, soch tarog'i, tirnoq oladigan qaychi, tish cho'tka kabilarni ozoda tutish. Birovning dastro'moli, taroq, qaychi va tish cho'tkasini ishlatmaslik.



Tozalik – sog'lik g       i.



Siz shaxsiy gigiyenaga qanday  
rioya qilasiz?



Ayting-chi, quyidagi rasmlarda tasvirlangan narsalarning qaysilari shaxsiy gigiyenada va qaysilari uy tozalash uchun ishlatalidi?



Pokliging – sog‘liging.




## **19. BADANTARBIYA – SOG‘LIK GAROVI**

### **Badantarbiya qoidalari**

Badantarbiyani bajarishda quyida-gilarga amal qilish kerak:

1. Har kuni erta bilan belgacha toza, nam sochiq bilan artinish.
2. Mashqlarni 5–6 daqiqa davomida bajarish.
3. Badantarbiyani to‘g‘ri nafas olish mashqi bilan yakunlash.

Ertalabki badantarbiyani quyidagi rasmda ko‘rsatilgandek qilib bajaring.





## Badantarbiya

Bir – joyingda to‘g‘ri tur,  
Ikki – qo‘llaringni yoz.  
Uch – egilish mashqlari,  
To‘rt – turib sakra biroz.  
Keyingi mashq – yugurish,  
Eh, bu juda-juda soz!  
Mashqlarda ko‘p xislat,  
Tanangga berar quvvat.

*M. Egamberdi qizi*



Salomatlik – tuman b  k .

Badantarbiyada mashqlar qan-day ketma-ketlikda bajari-ladi?



?

## V. BILIM OL, HUNAR O'RGAN

### 20. KITOBI — BILIM CHIROG'I



!

Rasmlarni qiyoslang va xulosa chiqaring.

#### **Kitob**

Men kitobman-kitobman,  
Nurga to'la oftobman.  
Agar meni yirtsalar,  
Biling, shunda — betobman.

*Abdulla Turdiyev*



## Kitob o‘qish qoidalari:

- ◆ kitobni toza qo‘l bilan ushlang;
- ◆ kitobni avaylab-asrang;
- ◆ kitobni yotib, ko‘zga yaqin ushlab o‘qimang, bu salomatlik uchun zarar;
- ◆ kitobni yorug‘lik chap tomondan tushadigan joyda o‘qing. Kitobingizda hamisha xatcho‘p bo‘lsin.



“Kitobim – oftobim” mavzusida kichik matn tuzing.




Juda sevamiz uni  
Xilma-xildir mazmuni.  
U – barchaning ulfati,  
Ba’zan bo‘lar surati.  
Qani, o‘rtoq, buni top!  
Eslagan der, bu – ....



## **21. BILIM OL, HUNAR O'RGAN**

### **Hunarli va hunarsiz**

Hunarli-yu hunarsiz qanday bo'lar?  
Bir-biriga teskari doim ular.  
Bittasining qo'lida g'ayrati bor.  
Bittasining ko'nglida hasrati bor.  
Bittasining gap-so'zi iliq bo'lar.



Bittasining har so‘zi sovuq bo‘lar.  
Hunarlini maqtashga so‘z yetishmas,  
Hunarsizni yozishga til kelishmas.  
Ey, bolalar, misoldir, bular sizga.  
Sira-sira o‘xshamang hunarsizga.

*Po‘lat Mo‘min*



Hunarsiz kishi bilan do‘sst bo‘lma.  
“Qobusnoma”dan



Hunarli kishiga xos fazilatlar nimalardan iborat?



Ilm-u hunar mehnat va harakat tufayli qo‘lga kiritiladi. Rizq-ro‘z kasb-hunar sababli hosil bo‘ladi. Hunarmand bo‘lsangiz, hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lasiz.



Hunar — h █ █ r dan zar unar.

Hunarsizga k █ █ yo‘q.



## **22. INSON MEHNATI BILAN SHARAFLIDIR**

### **Ipak qurti**

Ipak qurti guldan gulga qo'nib-uchib yurgan go'zal kapalaklarga havas qilar edi. Chunki o'zi ular kabi ucha olmas edi-da. Lekin pilla o'rashda mohir edi. Shuning uchun u g'ayrat bilan pilla o'rashda davom etardi. Nihoyat, ipak qurti pillani o'rab bo'Igach, qattiq uyquga ketdi.



Uyg'onganidan so'ng pillani yorib, tashqariga chiqdi. Shunda u go'zal kapalakka aylandi va gulzor bo'ylab uchib ketdi.

Xulosa: Yaxshi o'qib, ilm egalla-sangiz, bir kuni kelib uning rohatini ko'rasiz.

?!  
?

1. Qurtcha nima uchun kapalak-larga havas qilar edi?
2. Qurtchaning kapalakka aylanishi sababini aytib bering.
3. "Mening sevimli mashg'ulotim" mavzusida qisqa hikoya tuzing.



G'ayrat-shijoat — astoydil mehnat qilish, o'qish, dangasalikdan yiroq bo'lishdir. Bolalar, albatta, g'ayratli bo'ling!



Kishining so'ziga emas,  
ishiga boq.

Bugungi ishni ertaga qo'yma.



Gap bilan shoshma,  
i  bilan shosh!



## **23. MENING QO‘G‘IRCHOQLARIM**

### **Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida**

Qo‘g‘irchoq teatri shaharning markazidagi katta binoda joylashgan. U yerda Aziz ko‘pgina ertaklarni tomosha qilgan. Chunki u qo‘g‘irchoq teatrini juda yaxshi ko‘radi. Yaqinda otasi Azizga qo‘l bilan o‘ynatsa bo‘ladigan Nasriddin Afandi qiyofasidagi qo‘g‘irchoqni sovg‘a qildi. Aziz “Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida” degan ertak to‘qidi. Keyin akasi bilan birga o‘rtoqlariga tomosha qo‘yib berdi. O‘rtoqlariga ham bu o‘yin yoqib qoldi.



!

Qo‘g‘irchoq teatrida rioya qilinadigan odob qoidalarini sanab bering.

## **Qo‘g‘irchoq**

Erkatoym qo‘g‘irchoq,  
Sochi mayin qo‘g‘irchoq.  
Sovg‘a qilib to‘yingga,  
O‘Ichab mitti bo‘yingga.  
Tikdim jajji ko‘ylakcha,  
Avvalgidan bo‘lakcha.  
Tovlanadi xuddi zar,  
Kiysang, quvonar do‘sstar.

*Ergash Yondosh*



Rasmda qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan?



## **KIM BO‘LSAM EKAN?**

*(amaliy mashg‘ulot)*

Muxtor: “Katta bo‘lsam, albatta, me’mor bo‘laman. Ulkan uylar qu-raman”, — dedi. Munisa esa: “O‘qituvchilik barcha kasblardan yaxshiroq”, — dedi. Bahsga Ravshan aralashdi. “Eng zo‘r kasb — haydovchilik”, — dedi u. Birov tikuvchilik, birov osh-pazlik, yana birov shifokorlikning eng zo‘r kasb ekanini uqtirdi. Hurmatli o‘quvchi, qani aytingchi, siz kim bo‘lishni istaysiz?




?

1. Bolalar nima nima haqida bahslashdilar?
2. Ayting-chi, siz qaysi kasbni eng yaxshi kasb deb hisoblaysiz?

## **Har kasbning o‘z xislati bor**

Kasb-hunarli inson xor-u zorlik ko‘rmaydi. Donolar shunday o‘git beradilar: “Har kim o‘ziga xos va mos kasb-hunar tanlasa, u baxtlidir”.



?!  
?

1. Rasmda qaysi kasb egalari tasvirlangan?
2. O‘zingiz biladigan boshqa kasb-hunar turlarini sanab bering.
3. Kasb-hunar haqida bilgan maqollaringizni aytib bering.



Yigit kishiga **q**     
hunar oz.



## **VI. AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR**

### **24. XOTIRA VA QADRLASH KUNI**



Tinchlik – bebaho ne'mat. Tinchlik uchun jon fido etgan qahramonlarni xotirlash burchimizdir. Qariyalar va bemorlar holidan xabar olish go'zal fazilat hisoblanadi.

#### **Jasorat**

G'anining bobosi Bolgariyani fashistlardan ozod qilishda qatnashib, oyog'idan ajralgan. U Bolgar qishlog'ida, fashistlar mina qo'ygan binodan bolalarni olib chiqqan ekan. Navbatdagi bolani qutqarayotganida, yaqin joyda mina portlabdi.

Yaralangan bobo va bola tuproq ostida qolibdi. Ko'zini ochganida tepasida ularni tuproq ostidan kavlab

olgan bolgar do'sti horg'in jilmayib turgan ekan.



– Omon qoldinglar, do'stim, endi uzoq yashaysizlar, – debdi u.

Ha, G'anining bobosi tinchlikning qadrini yaxshi biladi.



Xotira mangudir.



1. Nega qahramon ota-bobolaramiz xotirasini yodda saqlaymiz?
2. Muqaddas qadamjolar, bemorlar va qariyalar ziyorati olobi haqida ma'lumot to'plang.



# **ZIYORAT QILISH ODOBI**

*(amaliy mashg'ulot)*

## **Ziyoratgohda**

Xotira va qadrlash kunida Akbar sinfdoshlari bilan Zangiota ziyoratgohiga bordi. Ziyoratgohni Sohibqiron bobomiz Amir Temur qurdirgan. Unda Zangiotaning maqbaralari mavjud.

Ziyoratgohga kirish oldidan ustoz bolalardan ziyorat odobiga rioya qilişlarini iltimos qildi:

– Bolalar, ziyoratgohda meni uyal-tirib qo'y manglar. Ichkarida ohista, shovqin solmay yuringlar. Baland ovozda gapirmanglar. Ullug' ajdod-larimiz haqidagi ma'lumotlarni yaxshilab bilib olinglar.



1. Matndan ziyorat odobi haqidagi o'gitlarni yozib oling.
2. Bemorlar va qariyalar ziyorati haqida so'zlab bering.



## VII. TABIAT VA BIZ

### 25. TABIAT QO‘YNIGA SAYOHAT ODOBI

#### **Qoidalar**

Tabiat qo‘yniga sayohat chog‘ida quyidagi qoidalarga rioya qiling:

1. Ozodalikni saqlang. Go‘zal tabiat ko‘rkini buzmang.
2. Qushlar va boshqa jonivorlarga tosh otib, ozor bermang.
3. Zilol suvni toza saqlang, unga turli chiqindilarni tashlamang.
4. Daraxtlarni sindirmang.



Suvni ich, chashmani bulg‘ama.

Yerga qarasang – bog‘ bo‘lur,  
Ko‘ngil ochilib, chog‘ bo‘lur.

Yerni tepma, joni bor,  
Urib turgan qoni bor.



Rasmlardan hayvonlar nomining bosh harflarini topsangiz, “Qizil kitob”ga kiritilgan jonivor nomini bilib olasiz.

K +



+



+



+ K.

## **Tabiatni asrang!** *(hayotiy ertak)*

Olimjon daraxt, o’simlik va hayvonlar bilan bemalol so’zlashadi. Uning o’rtoqlari juda ko‘p, lekin ba’zi o’rtoqlari biroz qulqoqsizroq. Olimjon o’rtoqlarini tog‘ yonbag‘riga sayohatga olib bordi. Ular soy bo‘yida miriqib dam olishdi. Lekin, afsuski, Olimjonning qulqoqsiz o’rtoqlari tabiatga ozor berishdi. Shunda shildirab oqayotgan Jilg‘a Olimjonning oldiga kelib arz qildi:

— Olimjon, o’rtog‘ingga ayt, nega menga chiqindi tashlaydi? Axir men sizlarga juda kerakman-ku!

- O'rtog'ingga ayt, shoxlarimni sindirib ozor bermasin, jonom og'riydi,
- dedi O'rik daraxti.
- O'rtog'ingni qaytar, polaponlarimni urib tushirmoqchi, — zorlandi Qushcha.



Bu gaplarni eshitib, Olimjon rosa xafa bo'ldi. Quloqsiz o'rtoqlariga ularning arz-u dodlarini yetkazdi. Ular o'z qilmishlaridan uyalib, Jilg'a, O'rik daraxti va Qushchadan kechirrim so'rashdi.

?! Ertakdan xulosa chiqaring. Tabiat qo'ynida dam olish odobi nimalardan iborat ekan?



## **26. JONIVORLARGA G‘AMXO‘RLIK — EZGU FAZILAT**

### **Chumchuq**

Tal’at Boboxonni ko‘rdi-yu, qovog‘i solindi. Uning qo‘lida oyog‘iga ip bog‘langan kichkina chumchuq bor edi. Tal’at chumchuqni qo‘yib yuborishini so‘rab, Boboxonga yalinib o‘tirmadi. Chunki Boboxon juda o‘jar bola edi.

— Boboxon, chumchuqni qayerdan olding? — deb so‘radi Tal’at.

— Bug‘doyzordan, chigirtka tutganimda do‘ppim bilan urib yiqitdim.

— Mana bo‘yoq qalam. Shunga alishmaysanmi?

— Fi-i! Tirik chumchuqni bitta qalamgami? Boshqa narsang yo‘qmi?

— Agar xo‘p desang, mana bu o‘chirg‘ichimni ham beraman.

Boboxon chumchuqni berdi. Keyin qiziqsinib:

— Buni alishvolib, nima qilasan? — dedi.

— Hozir bilasan nima qilishimni.

Tal'at chumchuqning oyog'idan avaylab ipni yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo'yib yubordi: «Bor, uchaver!»

Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga, goh uchib ketayotgan chumchuqqa, goh kulimsirab turgan o'rtog'i Tal'atga javdirab, nima qili-shini bilmay, hang-mang bo'lib qoldi.

O'. Usmonov



?

1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Siz jonivorlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?



## **27. TABIAT NE'MATLARINI TEJASH**

### **Tabiat ne'matlari**

Tabiat o‘z bag‘ridan bizga joy beribgina qolmay, o‘z ne’matlari orqali hayotimizni farovon, uylarimizni charog‘on qilmoqda. Hatto taomimiz ham uning ko‘magida tayyorlanadi. Qanday qilib deysizmi? Albatta, elektr quvvati va tabiiy gaz yordamida. Suvdan quvvat oladigan gidro-elektr stansiyalar (GES) uylarimizni yoritadi, ulkan korxonalar, televizor, radio, muzlatkich, kompyuter, qo‘l telefonini – barcha-barchasi u tufayli ishlaydi.

Yer yuzining asosiy qismi suvdan iborat bo‘lsa-da, ichimlik suvi juda ozligini bilasizmi? Agar ichimlik suvini toza saqlamasak, bor-yo‘g‘i 10 yil o‘tgach, yer yuzining yarim aholisi suvsiz qoladi.



Suv qatrasи – dur qatrasи.



1. Suv, gaz, elektr quvvati in-songa qanday foyda keltiradi?
2. Nima uchun toza suvni tejash lozim?



1. Rasmlardagi holatlarga baho bering.
2. Siz suvni asrab-avaylashga qanday hissa qo'shasiz?



Suvsiz hayot bo'imas,  
mehnatsiz – rohat.



## **NAZORAT ISHI**

1. Maqolni to‘Idiring:  
Ona yurting — ... beshiging.
  - a) metin;
  - b) chiroyli;
  - c) oltin.
  
2. Maqolni to‘Idiring:  
O‘zga yurtning gulidan,  
O‘z yurtingning ... yaxshi.
  - a) cho‘li;
  - b) tikani;
  - c) maydoni.
  
3. Maqolni to‘Idiring:  
Serjanjal uyda ... yo‘q.
  - a) rohat;
  - b) ovqat;
  - c) baraka.
  
4. Shifokor davolay olmaydigan ka-sallik — ....
  - a) bosh og‘rig‘i;
  - b) kashandalik;
  - c) manmanlik.

5. Quyidagi rasm va she'r asosida  
“Ona Vatan bag'rida” mavzusida  
kichik matn tuzing.



## **Yashna, Vatan!**

Ey, aziz Vatan —  
Jonajonimiz,  
Sen bizning shodlik,  
Gulistonimiz.  
Bizga mehribon,  
Sevimli ona,  
Berding bizga ilm,  
Kitob, darsxona.

*Zafar Diyor*



# MUNDARIJA

## I. O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD DIYOR

1.	MUSTAQILLIK KUNI .....	3
2.	BOBOLARDAN MEROS YURT .....	6
3.	ODOB-AXLOQ ME'YORLARINING DASTLABKI TALABLARI .....	8

## II. ODOB — INSON UCHUN OFTOB

4.	ETIKETNING ASOSIY QOIDALARI .....	10
5.	ETIKET NIMAGA O'RGATADI .....	12
6.	ETIKETNING ASOSIY TALABI .....	14
7.	YAXSHILIK VA YOMONLIK .....	15
8.	MAS'ULIYAT .....	17
9.	RAHMDILLIK VA BAG'RIKENGLIK .....	18
	TAKRORLASH .....	20

## III. INSON VA JAMIYAT

10.	SALOMLASHISH QOIDALARI .....	21
11.	SALOMLASHISH ODOBI .....	23
12.	OVQATLANISH QOIDALARI VA MADANIYATI .....	24
13.	ODOBLI BOLA ELGA MANZUR .....	26
14.	MINNATDORLIK VA JONKUYARLIK .....	27
15.	UYDA VA TA'LIM MUASSASASIDA ODOB-AXLOQ QOIDALARI .....	29
16.	JAMOAT JOYLARIDA O'ZINI TUTISH .....	31

17. XAVFLI VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT QILING .....	33
TAKRORLASH .....	35
<b>IV. INSON SALOMATLIGI – YURT BOYLIGI</b>	
18. SHAXSIY GIGIYENA QOIDALARI .....	36
19. BADANTARBIYA – SOG'LIK GAROVI .....	38
<b>V. BILIM OL, HUNAR O'RGAN</b>	
20. KITOB – BILIM CHIROG'I .....	40
21. BILIM OL, HUNAR O'RGAN .....	42
22. INSON MEHNATI BILAN SHARAFLIDIR .....	44
23. MENING QO'G'IRCHOQLARIM .....	46
KIM BO'LSAM EKAN? (amaliy mashg'ulot) .....	48
<b>VI. AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR</b>	
24. XOTIRA VA QADRISH KUNI .....	50
ZIYORAT QILISH ODOBI (amaliy mashg'ulot) ....	52
<b>VII. TABIAT VA BIZ</b>	
25. TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT ODOBI .....	53
26. JONIVORLARGA G'AMXO'RLIK — EZGU FAZILAT .....	56
27. TABIAT NE'MATLARINI TEJASH .....	58
28. NAZORAT ISHI .....	60

**Hasanboyeva, Oysha**

O-31

**Odobnoma:** Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining 1-sinfi uchun darslik / O. Hasanboyeva, M. Inoyatova. — Sakkizinch nashr — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. — 64 b.

ISBN 978-9943-07-599-3

**UO'T: 17=512.133(075.2)**  
**KBT 74.200.51ya71**

*O'quv nashri*

Oysha Hasanboyeva  
Muhayyo Inoyatova

# **ODOBNOMA**

## **1-sinf uchun darslik**

*Sakkizinch nashr*

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent — 2018

Muharrir	Iroda Solihova
Badiiy muharrir	Asqar Yoqubjonov
Rassom	Baxtiyor Muhamedov
Dizayner	Umid Sapayev

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

02.04.2018-y.da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90<sup>16</sup>/16.

Kegli 18. Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 4,68. Nashr hisob tabog'i 3,67.  
Adadi 514 274 nusxa. 93-sonli shartnoma. 18–151-sonli buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent — 100011, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida bosildi. Toshkent — 100011, Navoiy ko'chasi, 30.